


IX.ISTE'MOL BOZORI


2023- yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 583,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan 2,3 foizga o‘sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 988,3 mlrd. so‘mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 595,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Samarqand shahri 37,3 %, Urgut tumani 10,5 %, Kattaqo'rg'on shahri 6,4 %, Samarqand tumani 6,4 %, Pastdarg'om tumani 4,4 %, Bulung'ur tumani 4,5 %, Kattaqo'rg'on tumani 4,7 %, Jomboy tumani 3,9 %, Narpay 3,8 %, Payariq tumani 3,7 % va Toyloq tumani 2,8 % chakana savdo tovar aylanmasining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, % da




Viloyatda aholi jon boshiga 2023- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 352,5 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 % ga ko‘paydi. Asosan aholi jon boshiga eng yuqori ko‘rsatkichlar Samarqand shahri (3 622,7 ming so‘m), Kattaqo'rg'on shahri (3 836,3 ming so‘m), Samarqand (1 339,9 ming so‘m) va Bulung'ur tumanlarida (1 270,0 ming so‘m) kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	<i>Hajmi, ming so ‘mda</i>	<i>O’tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Viloyat bo‘yicha	1 352,5	100,1
Samarqand sh.	3 622,7	98,2
Kattaqo‘rg‘on sh.	3 836,3	99,8
tumanlar:		
Bulung‘ur	1 270,0	100,5
Jomboy	1 181,4	102,5
Ishtixon	695,6	99,6
Kattaqo‘rg‘on	902,5	103,1
Narpay	943,1	100,3
Nurobod	591,5	100,4
Oqdaryo	865,3	99,0
Payariq	770,5	101,5
Pastdarg‘om	656,2	100,4
Paxtachi	934,1	102,5
Samarqand	1 339,9	103,2
Urgut	1 067,3	102,0
Toyloq	732,2	102,8
Qo‘shrabot	555,9	100,3

Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari kuzatilib, o’tgan yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’ati Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Toyloq, Jomboy va Paxtachi tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik savdo korxonalarning hajmi 988,3 mld. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,4 % ni tashkil qildi va umumiy savdo hajmining 17,7 foizini tashkil qildi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4 595,0 mld. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,9 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,3 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da

2022- yil yanvar-mart



2023- yil yanvar-mart



Yirik korxonalar
 Kichik tadbirkorlik


Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo‘yicha chakana tovar aylanmasi

	Hajmi, mlrd. so‘m	2022- yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da
Jami	5 583,3	102,3	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
davlat mulki	0,0	0,0	0,0
nodavlat mulki	5 583,3	102,3	100,0

2023- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	Hajmi, mlrd. so‘m	2022- yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da
Chakana tovar aylanmasi	5 583,3	102,3	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Yirik korxonalar	988,3	82,4	17,7
Kichik va mikrofirmalar	1 613,8	106,8	28,9
Norasmiy sektor	2 981,2	108,5	53,4

Chakana savdo tarkibi, % da



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 187,0 mlrd. so‘mni yoki 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 101,4 foizni tashkil etdi.